

О'zbekiston Respublikasida ta'limgiz tizimida mazmuniga vatanparvarlik ko'nikmalarini vujudga keltirishning ayrim xususiyatlari (TIZES)

Shahnoza Abdullayeva Nurmatovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi o'qituvchisi, tadqiqotchi
Email: shahnoza210707@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'limgiz tizimida mazmuniga vatanparvarlik ko'nikmalarini vujudga keltirishning ayrim xususiyatlari eng asosiy masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: vatan, vatanparvarlik, ta'limgiz mazmuni va shakli, Abu Muslim, Rofe ibn Lays, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, zamonaliviy pedagogika.

Jahon mamlakatlarida globallashuv jarayonlari bilan bir paytda ta'limgiz mazmuniga vatanparvarlik xususiyatlarini singdirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda ayni paytda shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotda xalqchil ta'limgiz tarbiyaga bo'lgan talabning ortishi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu esa mazkur sohani rivojlantirish zaruratining kuchayib borayotganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari ijtimoiy fanlar tarkibiga kiruvchi barcha fanlar uchun vatan va vatanparvarlik tushunchalari ham bugun muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham ta'limgiz tizimida sezilarli tarixiy yo'l bosib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida mustaqilikning ilk yillaridan bugunga qadar ta'limgiz to'g'risida bir necha bor qonunlar¹ qabul qilindi. Ta'limgiz mazmunidan klassik pedagogikada odatda ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar kutilishi bizga sir emas. Aynan mana shu darsning uch tarkibiy qismining barchasida vatanparvarlik tushunchasini singdirish ustoz-murabbiyning mahoratiga bog'liq. Negaki, bu borada mamlakatimiz boy tarixi va madaniy merosi To'maris, Shiroq, Spetamen, Abruy, Muqanna, Abu Muslim, Rofe ibn Lays, Mahmud Torobiy kabi yurtning mard o'g'lonlari, shuningdek, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa bir qancha davlat arboblari singari chin ma'noda vatanparvarlikning oliy namunasi bo'lgan vakillariga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mavjud ta'limgiz tizimidagi ijtimoiy-gumanitar fanlari zimmasiga aynan yuqorida nomlari qayd qilingan buyuk yurtdoshlarimizning nomlarini shunchaki qayd etish emas, balki o'rnatish, kerakli vaziyatlarda saboq chiqarish kabi vazifalarni olishi kerak. Sababi bugun shitob bilan rivojlanotgan ilm-fan texnika inqilobi ijtimoiy fanlarda mavjud tushunchalarning tubdan yangilanishi bilan bir qatorda, vatansizlik g'oyasini targ'ib etuvchi, kosmopolitizm bilan sug'orilgan, ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy muammolar osonlik bilan hal qilinadigan davlatlarda hayotning asosiy qismini o'tkazishni targ'ib etish xususiyatlari rivojlanmoqda.

¹ <https://www.lex.uz>

Bundan tashqari keyingi yillarda “Harakatlar strategiyasi”², “Taraqqiyot strategiyasi”³ talablaridan kelib chiqib, xalqimizning manfaatlari va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz ta’lim tizimining tarkibiy qismlarida jahon mamlakatlarining mazkur sohada to‘plagan ilg‘or tajribasini hisobga olish hamda ta’lim xodimlari oldida vatan va vatanparvarlik tushunchalarini singdirishning yangi yo’llari va usullarini zamonaviy pedagogika oldiga taqdim qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, kun tartibida mavjud masala ta’limning bugun aksariyat pedagoglar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan shakli emas, balki mazmuni aniqroq qilib aytganda sifati masalasiga e’tibor qaratish, shuningdek, ta’lim mazmunining tarkibiy qismlarida vatanparvarlik tushunchasini qamrab olish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga qabul qilingan yangi Konstitutsiya⁴ mazmun va shakl jihatidan zamonaviy dunyo, xususan, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi oldida turgan turgan muhim bir qator masalalarni norma sifatida kiritildi. Jumladan, ta’lim tizimi masalasi shakl va mazmun jihatdan boyidi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida mazmuniga vatanparvarlik ko’nikmalarini vujudga keltirish bugungi kun ta’lim-tarbiya muassasalari va pedagog xodimlar oldida turgan asosiy masala hisoblanadi.

Yangi referendum asosida qabul qilingan Konstitutsiya hamda “Ta’lim tog’risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan jamiyatimizda mavjud ammo tartibga solinmagan bir qator ta’limning mazmuni bilan bog’liq munosabatlarni qonuniy tartibga solinishi nazarda tutilmoqda.

Birinchidan, vatanparvarlik ta’limning tarkibi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-gumanitar fanlari zimmasiga To’maris, Shiroq, Spetamen, Abruy, Muqanna, Abu Muslim, Rofe ibn Lays, Mahmud Torobi kabi yurtning mard o’g’lonlari, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari chin ma’noda vatanparvarlikning oliy namunasi bo’lgan bir qancha davlat arboblarining asosiy hayot yo’li, vatan uchun amalga oshirgan ishlarni yosh pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazish vazifasi yuklatilishi kerak.

² <https://lex.uz/docs>

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида” ги фармони. 2022 йил 28 январь ПФ-60 son. // Lex.uz.

⁴ <https://www.xabar.uz/jamiyat/yangi-konstitusiyaning-toliq-matni>